

HUQUQ TIZIMI VA UNI ZAMONAVIY TUSHUNISH

Norqobilova Shohista Sobir qizi
TerDPI magistranti Telefon raqami:+998953209701
norqobilovashohista91@gmail.com

Annotatsiya: *Huquq tizimi - bu jamiyatdagi mavjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchillikda, o'zaro uzviy aloqadorlikda jonlanishi.*

Huquq tizimi, bir davlat yoki jamiyatda huquqiy munosabatlardan, qonunlarda normativ hujjatlar, institutlar va amalga oshirish organlar orqali belgilangan tartibdir. Bu tizim insonlar va jamiyat a'zolarining huquqlarini, javobgarliklarini, majburiyatlarni va o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va huquqiy normativ hujjatlardan iborat.

Mazkur tushuncha huquqshunoslikda alohida ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatning turli xil huquq sohalarini tartibga soladi.

Kalit so'z: *Huquq tizimi, normativ-huquqiy hujjat, huquq institutlari, konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, jinoyat huquqi, oila huquqi, moddiy huquq, protsessual huquq.*

KIRISH

Huquq tizimi bu huquqning ichki tuzilishi bo'lib, jamiyatdagi mavjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchillikda, o'zaro uzviy aloqadorlikda jonlanishidir. Huquq tizimi, avvalambor, huquq tarmoqlari (sohalari) deb nomlanuvchi alohida tarmoqlarga ajratiladi. Bunda, davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Aynan shu munosabatlardan huquqiy tartibga solishning predmetini tashkil qiladi. Huquqiy tartibga solishning usuli esa, huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishga yordamlashadigan yo'llari, usullari, vositalarining yig'indisidir.

Ijtimoiy munosabatlarning mehnat munosabatlari, ijtimoiy ta'minot, moliya va hokazolar kabi turlari alohida huquqiy normalar orqali tartibga solinadi.

Asosiy qism

Inson zoti borki, biron bir maqsadga intilib yashaydi. Buning uchun esa u boshqalar bilan munosabatga kirishib faoliyat yuritadi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobi yurtidan aytganlaridek, kishilar o'zaro bir-birlariga yordam berishib, kelishib tinch-totuv yashashlari maqsadga muvofiqdir. Demak atrofimizdagi ijtimoiy hayot aslida aynan kishilar o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabat tizimidir. Ushbu tizim o'z navbatida turfa xil munosabatlarni qamrab olgan murakkab jamlanmadir. Bunday murakkablik va turfa xillilik ijtimoiy munosabatlardan o'zaro ta'sirli aloqada bo'lgan hodisalardan ham xuddi shunday mutanosiblikni talab etadi. Shunday ijtimoiy munosabatlardan biri huquqdir.

Huquq- davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalar tizimidir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan regulyator bo'lib, uning ushbu xususiyati ijtimoiy munosabatlar bilan bo'ladigan aloqadorlikni ta'minlaydi.

Shuning uchun mavjud ijtimoiy munosabatlarni talqin etish bilangina huquq va uning ichki tuzilishi, tarkibiy qismlari haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, ijtimoiy munosabatlar xilma-xil, biroq shunga qaramay ular ma'lum bir tizimga ixtisoslashadi, mazmunan muayyan guruhlarga ajraladi. Ya'ni umummajburiy xulq-atvor, yurush-turish qoidalari ham tegishinchalarga guruhlanadi, tizimlanadi va yaxlit huquqni tashkil etadi.

Yuridik adabiyotlarda huquq tomonidan bosib o'tilagan bunday jarayon huquq tizimi mavzusida tahlil qilinib, atroflicha o'rganiladi. "Tizim" so'zi yunoncha "systeme" terminidan olingan bo'lib, "yaxlit", "qismlardan iborat" degan ma'noni anglatadi.

Har qanday tizim tarkibiy qismlarining xususiyatlari yaxlit qonuniyatlardan kelib chiqadi. Tizim va uning unsurlari o'zaro bog'liqligi shunchalik uzviyki, ularning yakka o'zi mustaqil mavjud bo'lishi mumkin emas. Ushbu jihatni jinoyat huquqida talqin qilamiz. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasi mazmuniga ko'ra, jinoyat huquqi sohasining asosiy vazifasi shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlashdan iboratdir.

Endi jinoyat huquqining dastlabki va birlamchi unsuri bo'lmish biron bir jinoyat huquqi normasini olaylik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida ifodalangan huquq normasiga muvofiq, o'zgalar mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish o'g'rilik jinoyati hisoblanib, taqiqlanadi va muayyan jinoiy jazoni qo'llash uchun asos bo'ladi.

Biroq, biz ushbu normani mustaqil holda tasavvur eta olasizmi? Ushbu savolga qo'rmasdan yo'q deb javob borishimiz mumkin. Zero, birinchidan, ushbu normani hayotga tatbiq etish uchun jinoyat huquqining boshqa norma va institutlariga murojaat qilish zarur bo'ladi; ikkinchidan esa, jinoyat huquqi oldiga qo'yilgan vazifalar ham aynan ushbu ehtiyojni, ya'ni jinoyat huquqi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni talab etadi.

Yuridik adabiyotlarda huquq tizimini tushunish turlicha yondashuvlar, munozaralar bilan kechadi. Ilk bor huquq tizimini tushunish muammolariga bag'ishlangan ilmiy qarashlar 1938-1940 yillarda paydo bo'ldi. O'sha davrda 10 ga yaqin huquq sohalari mavjudligi haqida fikrlar yuritildi. Ikkinchi va uchinchi munozaralar 1956-1959 - yillar va 1982 -yillarda bo'lib o'tgan. Ularda huquq tizimini rivojlantirishning yo'naliishlari, tendensiyalari belgilangan. Masalan ikkinchi ilmiy munozarada quyidagi xulosaga kelingan. 1) huquqni sohalarga ajratish uchun asos vazifasini o'taydigan mezonlar huquqiy tartibga solish predmeti va metodi ekanligi tan olindi; 2) huquqning 3 ta tarkibiy qismi ajratib ko'rsatildi: davlat huquqi, moddiy va protsessual huquq.

Huquq tizimi mustaqil kategoriya sifatida talqin etilib, qator adabiyotlarda chuqur tahlil qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, huquq tizimi- huquqning obektiv ravishda shakllangan ichki tuzilishi bo'lib, u harakatdagi, o'zaro bir- biri bilan bog'langan barcha yuridik unsurlarni o'z ichiga oladi,ichki uzviylik va ayni paytda umumiylilik va alohidalik, mustaqillik va bog'liqlik, o'xshash va farqlanish kabi xususiyatlarni umumlashtiradi. Huquq tizimisiz yuridik sohani tasavvur qila olmaymiz. Huquq tizimi huquqshunoslikda tayanch tushunchadir, huquqning har bir ichki tizimidagi bo'g'indir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.0'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi nashr. 2023 yil 26-27 b.
- 2.0'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. T."Adolat" 2003 yil 105-106 b
- 3.0'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi. T."Adolat " 2003 yil 210-215 b
- 4.Jinoyat Protsessual huquqi. T. 2021.yil. 543-546 b.
- 5.0'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T."Adolat" 2003 yil 126-130 b
- 6.0'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksi. T."Adolat" 2001 yil 84-88b
- 7.0'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual huquqi. Z. Esonova 2022 yil 177-189 b
- 8.0'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. T.1998 yil 12-15 b
- 9." Davlat va huquq nazariyasi " H.B.Boboyev. H.T.Odilqoriyev. 342-343 b.
- 10."Huquqshunoslik" Yoqubov.J. 2006 yil 305-311 b
- 11.0'zbekiston Respublikasi Ma'muriy kodeksi. 1994 yil. 3-4 b.